

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIX

### FANINING AHAMIYATI

Vasilxonov Azizzon Valixon o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti tarix fakulteti 4 bosqich talabasi talabasi

#### Annotation

Mazkur tezisda mazmunida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarix fanining o'rni ko'rib chiqiladi. Hozirgi davorda yoshlarga ta'lif tarbiya berishda, tarixiga xolisona baho berish orqali yoshlarni tarix faniga qiziqtirish va yuzaga kelgan muammolarni, yoshlarga to'g'ri tushuntirish va xolisona baholash masalalari belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarix, Amir Temur, Jaolliddin Manguberdi, Navoiy, Bobur, Vatanparvarlik, Istiqlol, Mustaqillik, Ahmad Farg'oniy, Yosh avlod.

Har doim o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z tariximiz va barkamol kelajakimiz ruhida tarbiyalash oliy maqsadlardan biri edi. "Mubolag'asiz aytish mumkinki deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev, "bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kimlar kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday yoshlar, qanday kadrlar kelishiga bog'liq<sup>1</sup>.

Tarix ta'lifi tizimida ham zamonaviy o'qitish metodlari innovatsion, pedagogik va axborot axborot taxnologiyalariga asoslangan darslik o'quv qo'llanmalarining roli benihoya kattadir. Yurt kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda tarixning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun tarixga bugungi kunda etibor bo'lakch. Tarix darslari ham chuqur va axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda olib borilmoqda, sababi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek:" Biz yurtimizni rivojlantirish uchun jahoning rivojlangan davlatlari tajribasidan keng foydalanishimiz lozim"<sup>2</sup>.

Tarix – xalqning fikr hamda tafakkurining hosilasidir. Aynan shuning uchun

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". -T.: "O'zbekiston" 2017.-B. 146.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. M. 1-jild. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz". -T.: "O'zbekiston". 2017.-B. 16.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ham tarix – ibrat maktabi bo‘lib, o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni anglash va ulardan tegishli saboq chiqarish, hushyorlik va ogohlikka, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag‘rikenglikka chaqiruvchi beqiyos ahamiyatli maktabdir. Shundan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, qadim o‘tmish bilan bugungi kunning, o‘tmish ajdodlarimiz bilan bugungi avlodlarimiz o‘rtasidagi bog‘liqlikni unutmasdan yanada mustahkamlash milliy taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi. Bunday bog‘lanishda esa tarix asosiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Haqqoni yozilgan Vatan tarixini o‘rganish va o‘qitish u soxta tarixiy tushuncha va tarixiy xotirasizlikka barham beradi, milliy g‘oya va mafkuraning takomillashuvini tezlashtiradi. Xalqimiz undan ruhiy quvvat olib, dushmanga bosh egmaslik, mustamlaka ilkiga tushmaslik, boshqalarga bo‘ysunmaslik, begona g‘oya va mafkura hamda zug‘umlar ta’siriga berilmaslik ma’naviyatiga ega bo‘ladi.

Shuning uchun ham tarixni o‘rganish va o‘qitish zarur. Tarixni mukammal bilish, uning mazmun va mohiyati, falsafasini teran anglash millat uchun yuksak fazilat hisoblanadi<sup>3</sup>.

Ayrim tarixiy hodisalar va shaxslar faoliyatini xolisona yoritishga bo‘lgan ayrim urinishlar keskin qoralandi. O’sha davrda "yagona sovet madaniyati", "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalminal madaniyat" konsepsiyasi vujudga keldi va keyingi sovet o’n yilliklari davrida hukmron konsepsiyaga aylantirildi. Bularning hammasi tarixiy xotiraga salbiy ta’sir ko’rsatdi, tarixiy zamonlar va davrlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘qolishga olib keldi. Yosh avlodlar o‘z millatining chinakam tarixidan tobora uzoqlashtirildi.

O‘z vatani ozodligi yo`lida qo`liga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o`g`loni Jaloliddin Manguberdidir.

Jaloliddin Manguberdining hayoti va vatanga e’tiqod yo`lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o‘rganish o’smir yoshdagagi o‘quvchilarining vatanga e’tiqod, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, g`urur va iftixon, vatan va xalq tinchligi yo`lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jaloliddin Manguberdi butun hayoti davomida o‘z xalqi va vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go`zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi. Rivoyat qilishlaricha, Jaloliddin hayqirib oqayotgan Jayhunga kesak otgan ukasining chakkasiga tarsaki qo`yib yuboradi, – suvgaga kesak otmoq, tuproqqa tupurmoq gunohi azim, sen Xorazmni onang o`rnida ko`r! – deb

<sup>3</sup> Murtazayeva R. H., Ermetov A. A., Odilov A. A. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. -T.: 2022. -B. 16.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xitob qiladi. Bu rivoyat orqali Jaloliddin Manguberdining vatan, ona zaminga bo'lgan mehri, e'tiqodi yuksak ekanligi ko'rinish turibdi. Jaloliddin bolaligiga xos yuqorida keltirilgan hulq-atvor, odob, ahloq ko'rinishlari, go`zal fazilatlari hozirgi va kelgusi avlod uchun namuna sifatida xizmat qiladi. Uning bu kabi fazilatlari; tanlagan yo'lidan qaytmasligi, ma'rifatparvarligi, vatanni qalban sevishi, islom dini, ustozlarini qadrlagani, mardligi, halolligini targ`ibot qilish, yosh avlod uchun har tomonlama namunali inson ekanini ko`rsatish bugungi kunda o`qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi. Uning ibratli hayoti, millati va vataniga bo'lgan cheksiz muhabbat, mustahkam e'tiqodi har birimiz uchun namuna va o`rnakdir. Jangovor salohiyati va lashkarboshilik mahoratini o`rganish, ularni kelgusi avlodga targ`ib etish ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Uning vatan ozodligi yo`lida chekkan zahmatlarini targ`ib va tashviq qilish yosh avlodni vatan, el-yurtga e'tiqod tomon etaklaydi. O`z millati qadriyatlarini ulug`ladi, ularning qadriga etdi. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik uning butun hayotiy faoliyatini tashkil etdi. Amir Temur xalqaro maydonda ham o`z beqiyos salohiyatini orqin namoyish qila olgan buyuk shaxsdir.

Turli millatlar, turli irqu dindagi odamlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli davlat tuzishga erishgan. Yurtdoshlarini hamjihatlik va taraqqiyot, bunyodkorlik sari boshlagan ulug' ajdodimizning bu boradagi sa'yi xarakatlari bugungi kun yoshlari uchun ham ibratlidir.

U savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlar orqali xalqlar, mamlakatlar o'rtasida yagona makon barpo etish g'oyasini ilgari surdi. Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko'rish mumkin. Yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e'tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha milliy konsepsiylar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib borilayotganining guvohi bo'lamic. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ham, yoshlarning o'mi beqiyos bo'lgan.

Jumladan, O'zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o'tkazilgan, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo'yicha Ahmad Farg'oni, kimyo fani bo'yicha Abu



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Rayhon Beruniy, biologiya bo'yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilishi, iqtidor va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlashdir.

Mana, amalda bugun ijod, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin,kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon" "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyligi va ijrosini ta'minlashdir.Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldigakatta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish, barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunga kelib mamlakatimiz o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining o'ttiz yilligini keng nishonladi. Tarix oldida bu muddat kiprik qoqqanchilik lahzalarga teng davr hisoblanadi. O'tgan o'ttiz yil mohiyatan yurtimiz tarixida o'ta mas'uliyatlari va sharaflari davrni tashkil etdi. Shu davr mobaynida har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi, turmush tarzimiz o'zgarib, o'zligimizni anglay boshladik. Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, eng muhimi odamlarimizning ongu-shuurida tom ma'noda yangicha qarash va yangicha fikrlash tuyg'usi shakllanib ulgurdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". -T.: "O'zbekiston" 2017.-B. 146.
2. Mirziyoyev Sh. M. 1-jild. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz". -T.: "O'zbekiston". 2017.-B. 16.
3. Murtazayeva R. H., Ermetov A. A., Odilov A. A. O'zbekistonning eng yangi tarixi. -T.: 2022. -B. 16.